

REFERENDUM-UMUMMILLIY SIYOSIY JARAYON

Xushvaqtov H.Z.

Qarshi shahar 5-sonli umumiy o‘rta ta’lim

Maktabi 10 sinf o‘quvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilanishi o‘zining g‘oyaviy va huquqiy asoslarga ega ekanligi hamda u huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati prinsiplariga to‘la mos kelishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: referendum, renessans, umummilliyl, siyosiy jarayon, siyosiy hayot, siyosiy institutlar, umumxalq, konstitutsiyaviy, xalqparvar, islohot, inauguratsiya, fuqarolik jamiyati, ochiq jamiyat, pluralizm, huquqiy davlat, istiqbol, fikrlar hilma-xilligi, mafkuraviy jarayonlar, movozanat, ijtimoiy guruhlar, globallashuv, pozitsiya, saylov, prinsip, konstruktiv, passiv, nodemokratik, mezon, negiz, kompitent, muqobil, xolislik, liberallahuv, realizm, ideallik, mushtarak, ixtilof, tadrijiy.

АННОТАЦИЯ

В статье поясняется, что обновление Конституции Республики Узбекистан имеет свои идеино-правовые основания и полностью соответствует принципам правового демократического государства и гражданского общества.

Ключевые слова: референдум, ренессанс, национальный, политический процесс, политическая жизнь, политические институты, национальный, конституционный, популистский, реформа, инаугурация, гражданское общество, открытое общество, плюрализм, правовое государство, перспектива, разнообразие мнений, идеологические процессы, равновесие, социальное группы, глобализация, позиция, выборность, принцип, конструктивный, пассивный, недемократический, критерий, основа, компетентный, альтернативный, объективность, либерализация, реализм, идеальность, общий, конфликтный, прогрессивный.

ABSTRACT

The article explains that the renewal of the Constitution of the Republic of Uzbekistan has its own ideological and legal foundations and that it fully corresponds to the principles of a legal democratic state and civil society.

Keywords: referendum, renaissance, national, political process, political life, political institutions, national, constitutional, populist, reform, inauguration, civil society, open society, pluralism, legal state, perspective, diversity of opinions, ideological processes, equilibrium, social groups, globalization, position, election, principle, constructive, passive, non-democratic, criterion, basis, competent, alternative, objectivity, liberalization, realism, ideality, common, conflict, progressive.

O‘zbekiston uchinchi Renessans poydevorini barpo etayotgan bugungi kunda o‘ta muhim, umummilliy siyosiy jarayonga ya’ni, umumxalq referendumini o‘tkazishga jiddiy tayyorlanmoqda. Demokratik huquqiy davlatlar, fuqarolik jamiyatlari o‘ta muhim, eng avvalo inson manfaatlari ustuvorligiga daxldor, davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalarni referendum o‘tkazish orqali hal qiladi.

Referendum (*lotincha: referendum*) bu fuqarolarning davlat, viloyat yoki mahalliy ko‘lamda eng muhim masalalar bo‘yicha ovoz berish yo‘li orqali o‘z fikrlarini bevosita bildirishlaridir. Dastlabki referendumlar miloddan avvalgi 417- yillarda Qadimgi Rimda paydo bo‘lgan¹.

Mustaqil O‘zbekiston tarixida uch bor referendum o‘tkazilgan:

1) 1991-yil 18-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 8-sessiyasida „O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida referendum o‘tkazish to‘g‘risida“gi qaror qabul qilingan². O‘zbekiston Respublikasida 1991-yil 29-dekabrda Prezidentlik saylovlari bulan bir qatorda, mustaqillik referendumi bo‘lib o‘tdi³.

2) 1995-yil 26-martda O‘zbekiston hududida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti Islom Karimovning vakolat muddatini 2000-yilgacha uzaytirish bo‘yicha umumxalq referendumi o‘tkazildi⁴.

3) O‘zbekiston tarixidagi birinchi va hozirgacha oxirgi konstitutsiyaviy referendum 2002-yil 27-yanvarda bo‘lib o‘tdi⁵.

2023-yil 30 aprelda O‘zbekiston Respublikasining Bosh Qonuni Konstitutsiyasini yangilashda O‘zbekiston fuqarolarining roziligini so‘rab referendum o‘tkazish nazarga tutilgan. Konstitutsiyani yangilashning g‘oyaviy va huquqiy asoslarini quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

Konstitutsiyaviy Qonun xalq irodasini ifoda etadi va u muqaddasdir. Shuning uchun Konstitutsiyaviy Qonunni yangilash referendum o'tkazishni talab etadi.

2022-2026-yillarda mo'ljallangan yangi "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili⁶" hamda, "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili⁷" da amalga oshirishga oid dasturlarning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangilash uchun g'oyaviy asos bo'ladi desak mubolog'a bo'lmaydi.

Darhaqiqat, "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish⁸" hamda "Mamlakatimizda adolat va qonun ustivorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish⁹" kabi maqsad va vazifalar, shuningdek, "Inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning Konstitutsiyaviy majburiyati¹⁰" davlat dasturi darajasida ko'tarilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taqozo etdi. 2021-yil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida 08.02.2021-yil qabul qilingan 671-sonli Qonuniga asoslanib Konstitutsiya islohoti haqida birinchi marta Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021 yil noyabr oyida, ikkinchi prezidentlik muddatiga kirishishidagi inauguratsiya nutqida e'lon qilgan edi¹¹. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangilashga asos bo'ldi.

O'zbekistonda bir kishi yoki jamoat tashkilotlarining fikri davlat tuzilmalarining fikridan ustinxoq bo'ladigan fuqarolar jamiyatini qurish, davlat mexanizmlari va tuzilmalarini yangidan shakllantirishni taqozo etdi. Bu Konstitutsiyaviy Qonunni yangilashni yuzaga olib chiqmoqda.

Bugun tez sur'atlar bilan tobora yuksalib, murakkablik tomon o'sib borayotgan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Hozir biz yashab turgan, bugungi shiddat bilan kechayotgan dunyoda hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi hozirgi davrda alohida chuqur va tez sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlari murakkablashuviga sabab bo'lmoqda.

XXI asrda o'ta axborotlashgan, murakkab tajovuzlarga, axborot hujumlariga boy, tahlikali, ochiq jamiyat shakllanmoqda. Bu davrda turli kuchlar davlatlarni qaram qilish maqsadida inson ongi va qalbini zabit etish uchun kurashmoqda.

O'ta murakkab yangilanishlar sodir bo'layotgan bugungi sharoitda ijtimoiy jarayonlarning jadallashishi, haqiqiy pluralizm va ko'ppartiyalikning vujudga kelishi siyosiy jarayonlar mazmunining yangi namunalarini sodir bo'lishiga olib kelmoqda.

O‘zbekistonda ochiq va erkin demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish vazifasini qat’iy maqsad qilib qo‘yilishi istiqbolda bu maqsadni amalgalashuvchi kuch sifatida turli ijtimoiy guruhga mansub bo‘lgan fuqarolarni siyosiy hayotda fikrlar xilma-xilligi sharoitida faol ishtirokini talab etmoqda. Ayniqsa, hozirgi tahlikali, sarosimali, o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayotganimiz yoshlarning siyosiy hayotda yangilashlarni ahamiyatini tadqiq etish masalalarini yanada dolzarblashtiradi. Fuqarolarning siyosiy hayotda ishtiroki jamiyat va davlat ishlarini boshqarishida bevosita hamda o‘z vakillari orqali amalgalashuvchi kuchiga ega. Bu jarayonlarda muhim qatlama sifatida yoshlar tarkibini, siyosiy institutlar va mafkuraviy jarayonlarga turli-tuman munosabati bilan o‘ziga xos muayyan ta’sir kuchiga ega. Fuqarolarning fikrlar xilma-xilligi sharoitida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda turlituman kuchlar muvozatini ta’minalashda siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar va davlat boshqaruv organlarining shakllanishi hamda amaliy faoliyatida ustuvor mavqeiga ega bo‘lib bormoqda.

Bugun fuqarolar yangi siyosiy sharoitda yashamoqda. Ularning qarashlari ham yangi tarixiy, siyosiy o‘zgarishlar, yangilanishlar hamda globallashuv jarayonlari bilan uzviy bog‘liq.

O‘zbekistondagi siyosiy jarayonlarga xos jihatlarda, turli siyosiy kuchlar manfaatlar uyg‘unligi va fikrlar rang-barangligi asosida siyosiy hayotda ishtiroki istiqbolini belgilash, farovon hayot barpo etishning muhim omili hisoblanadi. Bu ko‘p jihatdan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bog‘liq.

Bugungi fuqarolarimiz yangi davrda, yangi ma’naviy-mafkuraviy, siyosiy muhitda yashamoqda. Bu muhit murakkab go‘yaviy-mafkuraviy, ma’naviy o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Mafkuralar xilma-xilligi orqali bir tomonidan turli xil fikrlar, g‘oyalar namoyon bo‘lib insonning erkin fikrini ochiq namoyon etayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, ana shu muhittidan, nosog‘lom maqsadda foydalanayotgan ayrim kuchlar, guruhlar ham mavjudligi har bir fuqaroni, ziyoli insonni, murabbiyni o‘ylashga, fikrlashga undaydi. Bugungi yoshlarning axborot maydonidan qanday ma’lumotlarni olayotgani, nimaga taqlid qilayotgani, nimani olmayotgani, turli xil fikrga qanday fikr bilan javob berishi, g‘oyani-g‘oyadan farqlashni anglab yetishi, ularga mustaqil hayotiy pozitsiyaning shakllanib borishi bilan bog‘liq.

Demak, fuqarolar bugungi demokratik o‘zgarishlarga yangicha ong va tafakkur, ochiq va erkin demokratik qadriyatlarni farqiga yetgan holda, uni qadrlashni bilishlari, mustaqil fikrga ega bo‘lishlari muhim.

G‘oyaviy va mafkuraviy kurashlar bugungi kunda har qachongidan ham chuqur mazmun va ahamiyat kasb etmoqda deb tahmin qilish mumkin. Chunki, hozirgi turli

xil siyosiy qarashlar, manfaatlar va mafkurlar o‘rtasidagi kurash, to‘liq ma’noda demokratik mazmun va xarakter kasb etgani yo‘q. Fuqarolarning siyosiy madaniyati xilma-xil fikrlarni yaqinlashtirishga va umumiy siyosiy irodani shakllantirishga xizmat qilishi kerak, chunki zamonaviy jamiyatlarda pluralizm o‘z me’yoriy chegaralariga ega.

Erkin saylov va o‘z xoxish-irodasini erkin bildirish prinsiplari har bir shaxsning konstitutsiyaviy huquqi, milliy davlatchiligidan modelining asosini tashkil etadi. Bunda fuqarolar turli sotsial guruhlar, qatlamlar, harakatlar bilan hukumat orasidagi munosabatni yuzaga chiqarishda va oydinlashtirishda o‘ziga xos va mos, faol siyosat sub’yekti bo‘ladi. Bu bizga umumsiyosiy va umumijtimoiy ma’no kasb etadigan manfaatlar atrofida jipslashuvda, turli kuchlarning kelishuvlar ko‘lami va salmog‘i o‘sib, manfaat mushtarakligi imkonini oshirishda yordam beradi.

Konstitutsiyani yangilash siyosiy tizim va rejim, tartibotlarning mohihiyati bilan uzviy bog‘liq holda bo‘lib, shunchaki rasmiy holat ifodasi emas, balki demokratik jarayonlar tufayli amaliy (konstruktiv) ko‘rinishga ega. Bu o‘ta muhim siyosiy jarayon bo‘lib passiv ta’sir kuchiga ega emas. Uning ta’siri albatta siyosiy jarayonlarning xarakteri, demokratik yoki nodemokratik hayot tarzi ko‘rinishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Jamiyatning siyosiy tizizmi, o‘rnatilgan tartibotlar, rejim ham qonunchilikni shakllanishiga, uning namoyon bo‘lishiga, siyosiy hokimiyatga ega bo‘lish, ushlab turish va undan foydalanishga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Konstitutsiyani yangilashda turli xil mezonlar hisobga olinadi. Ammo, Konstitutsiya samaradorligi nuqtai nazaridan yondashganda amaliylik (konstruktivlik) darajasiga funksional yondashuv uning muhim jihatni hisoblanadi. Bu bizningcha: 1) turli siyosiy tizimlarda huquqiy madaniyat ko‘rinishi ham turli-xil bo‘ladi. Amaliy jihatni ya’ni, konstruktivlik darajasi bilan farq qiladi; 2) mamlakatlar va mintaqalarning o‘ziga xosligi. Bu ularning tarixiy madaniy rivoji, milliy davlatchilik negizlarida huquq ijodkorligi o‘ziga xos zususiyatlarini aks etishi nazarda tutiladi. Bu muhokama jarayonlarida o‘z ifodasini topadi.

Konstitutsiyani yangilash jarayonlari 2022-yil may oyida boshlandi va uning ustida deputat Akmal Saidov raisligidagi Konstitutsiyaviy komissiya ish olib bordi¹¹.

Umumxalq muhokamasida 220 mingdan ziyod taklif kelib tushgan¹². Demak, referendumlar o‘tkazilishi: 1) demokratlashtirish; 2) erkinlashtirish; 3) fuqarolarning ijtimoiy – siyosiy faolligi; 4) siyosiy va huquqiy madaniyatining shakllanishi bilan birga yetuklik darajasi hamda mamlakatning taqdiri va kelajagiga daxldorlik mas’ulyati bilan uzviy bog‘liq holda kechishini nazarda tutish muhim.

Konstitutsiya loyihasi: 1) siyosiy qarashlardagi xilma-xillikni hisobga olish; 2) siyosiy bahs va munozaralarda madaniyat saqlash; 3) huquqiy madaniyatni mas’uliyat bilan his etish; 4) konstitutsiyaga, hayotga baho berishda kompitentli bo‘lish; 5) asoslangan huquqiy dalillar, dasturlar bilan chiqish. Muqobil variyantlarni taklif etish orqali konstitutsianing yangilanishiga xizmat qilish; 6) eng muhim jihatni xolislik bilan inson xohish-irodasi, manfaatlari, umummilliylar manfaarlarini hisobga olish referendumning amaliy xarakterini ta’minlashga xizmat qiladigan tamoyillarni o‘zida mujassam etdi.

Konstitutsiyaviy Qonunni yangilash maqsadida o‘tkazilayotgan referendum o‘ta muhim siyosiy ahamiyatga ega. “Amaldagi konstitutsiyaga 27 ta yangi modda kiritilib, moddalar soni 155 taga yetmoqda. Konstitutsiyamizning amaldagi 275 ta normasi 434 taga ko‘paymoqda. Ya’ni amaldagi Konstitutsianing 65% i yangilanmoqda. Qonun loyihasi 6 bo‘lim 155 moddadan iborat” qilib umumxalq muhokamasiga qo‘yilmoqda¹³.

Referendum avvalambor mamlakatimizni yanada demokratlashtirish va liberallashtirishning yo‘lidagi sa’y harakatlarning su’ratiga fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligiga, ularning siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksakligiga va o‘z-o‘zidan ayonki, birinchi navbatda fuqarolarning yetuklik darajasiga, ularning O‘zbekistonimiz taqdiri va kelajagiga daxldor bunday ulkan mas’ulyatlari jarayonlarga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog‘liqdir. Bunday siyosiy referendum o‘tkazish orqali huquqiy realizm masalasi bilan ideallik o‘rtasidagi muvozanatning demokratik, konstruktiv xarakteri namoyon bo‘ladi. Siyosiy qadriyatlarning ochiqligi va yopiqligi ham uning konstrukriv yoki nokonstrukrivlik darajasiga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Referendum o‘tkazish siyosiy qadriyatlardagi ochiqlikga ko‘proq mos keladi va konstruktiv xarakter kasb etadi. Konstitutsiyadagi yangilanishlar referendum orqali umume’tirof etilgan demokratik madaniy me’zonlar bilan mushtarak holda amalga oshadi, xolislik milliy va umuminsoniy normalarga xizmat qiladi. Uning amaliy jihatini oshiradi.

Bu o‘zaro nizo ixtiloflarga sabab bo‘lmaydi. Shu asosda qabul qilingan Konstitutsiyani inson manfaati, demokratiya nuqtai-nazaridan amaliy deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilash jarayoni va referendum o‘tkazish o‘ziga xos g‘oyaviy va huquqiy asoslarga ega. Bular: birinchidan, qonuniy asoslari nuqtai nazaridan yondashgan, o‘zining yechimini topgan. Uni kafolatlovchi ququqiy asosi mavjud.

Ikkinchidan, siyosiy tizim va rejim, tartibotining mohiyati bilan uzviy bog‘liq. Bunda turli xil mezonlar hisobga olingan. Mintaqaning o‘ziga xosligi, tarixiy madaniy rivoji, milliy davlatchilik negizlari, huquqiy tizimi va aholining davlat siyosatiga munosabati.

Uchinchidan, aholining turli qatlamlarini inobatga olish, turli xil qarashlar, manfaatlarni rivojiga ham bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda zarur demokratik muhit shakllantirib borish bilan bog‘liq islohotlar amalga oshirilayotgani bilan xarakterlidir.

To‘rtinchidan, fuqarolar qonun ijodkorligi jarayonlariga to‘g‘ridan-to‘gri demokratik tamoyillar asosida ishtirok etadi. Bu fuqarolik jamiyatni prinsiplarga to‘la mos keladi.

Beshinchidan, davlat va jamiyat qurilishi jarayonlariga fuqarolarning munosabati, yondashuvi, g‘oyaviy va mafkuraviy e’tiqodi, qarashi hamda, siyosiy hayotiy pazitsiyasi amaliy ahamiyatini topadi.

Oltinchidan, referendum turli xil fikrlar rivojlanayotgan sharoitda o‘ziga xos mas’uliyat yuklaydi. Undan oqilona foydalanish demokratiya talablariga to‘g‘ri keladi va unga xizmat qiladi.

Yettinchidan, referendum fuqarolardan turli xil fikrlarga nisbatan konstruktiv qarashni taqozo etadi. Fuqarolar siyosiy hayotida demokratik konstruktiv siyosiy jarayon o‘ziga xos mezon hisoblanadi.

Sakkizinchidan, bugungi globallashuv sharoitida turli fikrlarga nisbatan, huquqiy yechim topiladi.

To‘qqizinchidan, referendum turli siyosiy institutlar, munosabatlar orqali har-xil ijtimoiy guruqlar, qatlamlarning maqsad hamda manfaatlarini unga nisbatan konstruktiv yondashishlariga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Referendum>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_mustaqilligi_bo%CA%BByicha_referendum_\(1991\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_mustaqilligi_bo%CA%BByicha_referendum_(1991))
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_mustaqilligi_bo%CA%BByicha_referendum_\(1991\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_mustaqilligi_bo%CA%BByicha_referendum_(1991))
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_presidentining_vakolatlari_muddati_bo%CA%BBicha_referendum_\(1995\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_presidentining_vakolatlari_muddati_bo%CA%BBicha_referendum_(1995))
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Konstitutsiyaviy_referendum_\(2002\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Konstitutsiyaviy_referendum_(2002))
6. <https://lex.uz/docs/-6296978>

7. <https://lex.uz/docs/6396146>
8. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
9. O‘sha joyda.
10. <https://xs.uz/uz/post/inson-huquq-va-erkinliklarini-ishonchli-himoya-qilish-davlatning-konstitutsiyavij-mazhburiyati-sifatida-belgilanishi-lozim-shavkat-mirziyoev>
11. <https://www.gazeta.uz/>
12. <https://yuz.uz/uz>
13. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori, 13.03.2023 yil, KSQ-4-son.